

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN HARAKATLAR!

Xolboyeva Orzigul G'ulomjon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi, korrupsiyaga oid jinoyatlar, korrupsiyaga doir tushuncha va uning oqibatida yuzaga keladigan muammolar keng yoritilib berilgan. Shuningdek, maqola davomida korrupsiyaning oldini olish uchun O'zbekistonada amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning samarasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola so'nggida xulosa berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaning oldini olish, amalga oshirilayotgan islohotlar, qonun ustuvorligi, adolat muammolari.

Kirish.

Bugungi kunda xalqimiz tilida sodda qilib poraxo'rlik, keng ma'noda korrupsiya deb ataluvchi hodisa barcha rivojlanishlarga to'sqinlik qilmoqda.

“Bir marta bo'lgan ish takrorlanmas, ammo ikkinchi marta bo'lsa, demak takrorlanadi”- deganlaridek, mamlakatimizda korrupsion holatlar kuchaymoqda. Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarning ma'lumotlariga qaraganda, dastlabki korrupsiya Shumer podshohligi davriga borib taqaladi. Korrupsiyaning bugungi kungacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, uni butunlay yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan arab mamlakatlari bu illatdan butkul xolos bo'lmagan. Biroq jamiyat rivojiga to'sqinlik qiluvchi bu xavfni oldini olish Yer yuzidagi barcha davlatlarni birgalashib bartaraf etishga chorlaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor haqiqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin. 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan. BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan. BMTning Transmilliy uyshgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida”gi konvensiyasi 1999-yil 4-noyabrdagi “korrupsiya uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida”gi konvensiyalar va boshqalar. O'zbekiston yuqorida ta'kidlagan xalqaro normalardan 2008-yilda BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli “O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish

tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida''gi farmoni qabul qilinib , mazkur farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini , shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi" tashkil etildi. Qur'oni karimda poroxo'rlik bevosita taqiqlanadi. "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" (Baqara surasi , 188) O'zi korrupsiya nimadan boshlanadi? Avvalo, korrupsiyadan davlat organlari, xodimlari o'z shaxsiy manfaati uchun xizmat mavqeyidan foydalanadi. Masalan, bemor kishi shifoxonaga borganda shifokor bemor va uning yaqinlaridan ma'lum miqdorda pul so'raydi. Bu holat ham korrupsiyaning ma'lum bir ko'rinishidir. Bundan tashqari, ishga joylashish jarayonida ham tanish-bilish jarayonlari kuzatiladi. Agar tanish bilish bo'lmasa, ishga kirish uchun pul to'lashadi. Bu esa bizning eng og'ir nuqtamiz. Chunki oliy ma'lumotli inson ishga joylashishi uchun pul to'lashi avlodlar uchun salbiy ta'sir qiladi.

Korrupsiya birinchidan, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, buning ta'sirida esa mamlakatimizda rivojlanayotgan sohalar salbiy tomonga ketadi. Ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, ya'ni o'zining haq-huquqlarini bilmasligi, adolatsizlikni keltirib chiqaradi. Bu illatga qarshi kurashda quydagilarga e'tibor qaratish kerak: agentlik tomonidan korrupsiya tarkibiy qismiga kiradigan qonun, hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, davlat muassasalari ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi, sud tizimining mustaqilligi mustahkamlanishi, mansabda shaxslarning ish haqi ko'proq bo'lishi kerak. Davlat xizmatchilarining maoshi tadbirkorlarning oylik maoshidan 2 yoki 3 barobar ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki ular o'z maoshidan qoniqsa, ortiqcha poraxo'rlikka ruju qo'ymaydi. Bu borada bitta tashkilot – adliya organlari roli kuchayib, imtiyozlar ko'paytirilib borishi kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashishda Adliya vazirligi qonun ustuvorligini to'liq ta'minlagan holda, ish olib borishi davr talabi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va ularni oldini olish borasida olib borilgan islohotlar tahsinga sazovordir. Zero, ushbu islohotlar amalda o'z samarasini ko'rsatayotganligini O'zbekiston Respublikasini Transparency International xalqaro tashkilotining statistikama'lumotlariga qaraganda korrupsiya indeksi 2007-2020 yillar oralig'ida 9 ballga yoki 175-o'rindan 146-o'ringa ko'tarilganligidan ham bilib olish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korrupsiya jamiyatimizda sodir bo'ladi. Biz uni, avvalo, jamiyatimizning ongidan bartaraf etishimiz kerak. Buning uchun mustaqil

komissiya va markazlarni tuzish, haqiqiy ahvolni jiddiy o'rganish, barcha tadqiqotlar hamda axborotlarni muntazam yig'ib boradigan yagona markaz tezda ish boshlashi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4355387/> . Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.05.2019y., 5729-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020>.
- O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik kodeks VII-XVI-boblar
4. Korrupsiyaga qarshi kurash tarmog'i "Istanbul Xarakatlar Rejasi" doirasida Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarining 2016-2019-yillarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi islohotlar Monitoringi